

## Buxoro viloyatida 2020–yilning yanvar–mart oylarida qurilish ishlari

2020–yilning yanvar–mart oylarida o‘z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **918,6 mlrd. so‘mni** tashkil qilib, o‘shish sur‘ati **111,4 %** ni tashkil etdi.

2020–yil yanvar–mart oylarida korxonalar va tashkilotlarning turi bo‘yicha qurilish ishlari tarkibi, jamiga nisbatan % da



**yirik qurilish tashkilotlari**



**kichik korxonalar va mikrofirmalar**



**norasmiy sektor**

Korxonalar va tashkilotlarning turi bo‘yicha qurilish ishlari hajmi

**Yirik qurilish tashkilotlari - 104,7 mlrd. so‘m**

**Kichik korxonalar va mikrofirmalar - 523,5 mlrd. so‘m**

**Norasmiy sektor - 290,4 mlrd. so‘m**

### Hududlar kesimida qurilish ishlarining o‘shish sur‘ati, % da




Joriy yilning yanvar-mart oylarida Buxoro viloyatida o‘z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 918,6 mlrd. so‘mni tashkil qilib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘shish surati 111,4 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, yirik qurilish tashkilotlari tomonidan o‘z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 104,7 mlrd. so‘mni, kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 523,5 mlrd. so‘mni hamda norasmiy sektor bo‘yicha 290,4 mlrd. so‘mni tashkil qildi.

Mos ravishda yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi bo'yicha o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 76,2% ni, kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi bo'yicha o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati 110,8 % ni va norasmiy sektor bo'yicha o'sish sur'ati 134,8 % ni tashkil etdi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan jami qurilish ishlarining hajmida yirik qurilish tashkilotlarning ulushi 5,2 % ga kamaygan, norasmiy sektor ulushi 5,2 % ga oshgan, kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulushi o'zgarishsiz qolgan.


**2020 yil yanvar-mart oylarida korxonalar va tashkilotlarning  
turi bo'yicha qurilish ishlari tarkibi,  
jami ga nisbatan % da**



## Umumiy hajmda qurilish ishlarining turi bo'yicha taqsimoti


2020 yil yanvar-mart,

jamiga nisbatan % da



2019 yil yanvar-mart,

jamiga nisbatan % da



Qurilish ishlarning umumiy hajmidan 62,4 % i yoki 573,5 mlrd. so'm - yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish va texnik qayta qurollantirishga (o'tgan yilning mos davrida 60,1 % yoki 453,2 mlrd. so'm), 37,6 % i yoki 345,1 mlrd. so'm (o'tgan yilning mos davrida 39,9 % yoki 300,4 mlrd. so'm) - kapital ta'mirlash, joriy ta'mirlash va boshqa pudrat ishlariga to'g'ri keladi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar ijtimoiy soha obyektlarini (maktablar, kollejlarda, sport hamda sog'liqni saqlash ob'ektlari va boshqalar) qurishda, namunali hamda arzonlashtirilgan va sotish uchun mo'ljallangan turar joylarni qurishda, avtomobil yo'llarini qurish, rekonstruksiya qilish, kapital va joriy ta'mirlash ishlarida qatnashmoqda.

### **Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining hajmi**

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha bino va inshootlarni qurilishiga 611,4 mlrd. so'm, qurilish ishlarining umumiy hajmiga nisbatan 66,5 % ni, fuqarolik obyektlarini qurilishida 149,6 mlrd. so'm, umumiy hajmga nisbatan 16,3 % va ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi 157,6 mlrd. so'm, yoki umumiy hajmga nisbatan 17,2 % ishlar bajarildi.

*mlrd. so'm*


	Amaldagi narxlarda	Umumiy hajmga nisbatan, % da	shu jumladan iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha:		
			Bino va inshootlarni qurilishi	Fuqarolik obyektlarini qurilishi	Ixtisoslashtirilgan qurilish
<b>Viloyat bo'yicha jami</b>	918,6	100,0	611,4	149,6	157,6
Davlat mulki	47,7	5,2	0,5	45,6	1,6
Nodavlat mulk	870,9	94,8	610,9	104,0	156,0

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish loyihalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolarni qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi. Ularning ulushi o'tgan yilning mos davridagi ko'rsatkichga nisbatan 1,7 % punktga ko'paydi.

Fuqarolik qurilishi ob'ektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari hajmi o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 1,1 % punktga kamaydi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 0,6 % punktga kamaydi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining  
umumiy hajmiga nisbatan ulushi,  
jamiga nisbatan % da**



**2020 yilning yanvar-mart oylarida  
mulkchilik shakli bo'yicha qurilish ishlari hajmi**

Nodavlat mulkchiligidagi qurilish korxonalarini tomonidan 870,9 mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilgan, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 112,6 % ni tashkil etdi. Umumiy hajmga nisbatan ulushi 94,8 % ni tashkil qilib, o'tgan yilning mos davridagi ko'rsatkichga nisbatan 0,9 % punktga ko'paygan.

Davlat mulkchilik shakli tomonidan 47,7 mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, oʻtgan yilning mos davriga nisbatan oʻsish surʻati 93,8 % ni tashkil qilgan. Umumiy hajmga nisbatan ulushi 5,2 % ni tashkil qilib, oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 0,9 % punktga kamaygan.


	<b>2020 yil yanvar-mart uchun, mlrd. soʻm</b>	<b>Oʻtgan yilga nisbatan oʻsish surʻati, % da</b>	<b>Umumiy hajmga nisbatan ulushi, % da</b>
<b>Jami mulkchilik shakli boʻyicha</b>	918,6	111,4	100,0
Davlat mulki	47,7	93,8	5,2
Nodavlat mulk	870,9	112,6	94,8

### **2020 yil yanvar-mart oylarida hududlar kesimida qurilish ishlari**

Viloyatda bajarilgan qurilish ishlari hajmida eng yuqori oʻrinni Buxoro shahri egalladi. Bajarilgan qurilish ishlari hajmi 228,1 mlrd. soʻm, oʻsish surʻati oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 116,7 % ni tashkil qildi. Keyingi oʻrinni Romitan tumani egalladi. Mazkur tumanda qurilish ishlari 96,2 mlrd. soʻmni, oʻsish surʻati oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 128,0 % ni tashkil qildi. Keyingi oʻrinda Gʻijduvon tumanida esa 71,0 mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilgan boʻlib, oʻsish surʻati oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 101,6 % ni tashkil qildi.

	2020 yil yanvar-mart, mlrd. so‘m	2019 yil yanvar-mart, mlrd. so‘m	O‘shish sur‘ati, % da
<b>Jami</b>	<b>918,6</b>	<b>753,6</b>	<b>111,4</b>
Buxoro sh.	228,1	178,8	116,7
Kogon sh.	30,0	25,8	106,2
Olot	66,8	58,8	103,9
Buxoro	64,2	55,3	106,2
Vobkent	25,2	15,8	145,7
G‘ijduvon	71,0	64,0	101,6
Kogon	65,7	55,0	108,6
Qorako‘l	32,3	23,9	123,4
Qorovulbozor	69,5	59,6	106,1
Peshko‘	54,2	48,2	103,1
Romitan	96,2	68,9	128,0
Jondor	45,8	38,8	108,1
Shofirkon	69,6	60,7	104,8

**2020 yilning yanvar-mart oylarida hududlar kesimida  
qurilish ishlarining ulushi,  
jamiga nisbatan % da**



Viloyatda bajarilgan qurilish ishlarining umumiy hajmida 24,7 % ulush bilan Buxoro shahri yetakchilik qilmoqda. Keyingi pog'onani 10,5 % ulush bilan Romitan va 7,7 % bilan G'ijduvon tumanlari egalladi.

**Investitsiya va qurilish statistikasi bo'limi**

Nashr uchun mas'ul:

**O. Jabborov**

Aloqa telefoni:

**223-81-99, 0(371)230-83-10**